

HUDUDIY REKREATSIYA TIZIMLARI VA REKREATSIYA FAOLIYATINI TADQIQ QILISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

Hamdamov Eldorbek Doniyorjon o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiy va ijtimoiy

geografiya kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: hamdamoveldorbek8@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizm va rekreatsiya faoliyati, hududiy rekreatsiya tizimlari nazariy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, shu bilan birga, maqolada xorijiy va o'zbek olimlarining tadqiqotlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Turizm, mavsumiy turizm, mavsumiy davrlar, HRT tushunchasi, «Rekreatsiya vaqti», «O'lik» davr, «Pik» davr. «O'rtacha» davr.

Rekreatsiya faoliyati insonlarning sog'ligini tiklashda, mehnat unumdorligini oshirishda, stress va ruhiy tushkunlikdan chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Inson jonli organizm bo'lganligi bois hayoti davomida dam olishga, tabiat bilan hamnafas bo'lishga ehtiyoj sezadi, ayniqsa, bunday ehtiyoj aholi, ishlab chiqarish korxonalarini va transport tarmoqlari zich joylashgan shahar joylarida ancha yuqori bo'ladi.

Prezidentimizning turizm va rekreatsiya sohalarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilgan qaror va farmonlari, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonida ham, shu qisqa besh yil ichida mamlakatimizda turizm va rekreatsiya sohalariga katta ahamiyat berilishi xorijiy va davlat investitsiyalari orqali, e'tibordan chetda qolgan 100 dan ziyod madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilishga davlat buyurtmasi joriy qilish hamda ularga olib boruvchi infratuzilmani tiklash, mamlakatimizning ziyorat turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanib, turizm sohasida qo'shimcha eksport hajmini 30 foizga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilinganligi e'tiborga loyiqdir.

Shu bilan birga, Harakatlar Strategiyasining 35-maqсадida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish. To'siqsiz turizm infratuzilasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 barobar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish. Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros



obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish. Zomin, Forish, Baxmal, tumanlari va "Aydar-Arnasoy" ko'llar tizimida qo'shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish, 300 million AQSH dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o'rnini yaratish. Samarqandni "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 barobarga oshirish. [2].

"Rekreatsiya" – so'zi, lotin o'zagiga ega bo'lgan holda, "qayta tiklash" ma'nosini anglatadi, polyak tilida rekreaja –dam olish, recreation –qayta tiklash ma'nolarini anglatadi. [6]. Shuningdek, Rekreatsiya – (fransuzchada recreation-dam olish, harakatni o'zgartirish degan ma'nolarni anglatadi).[7]. Bu so'z deyarli barcha Yevropa tillariga bir xil ko'rinish va ma'noda kirgan bo'lib, uni ingliz, fransuz, polyak, rus va boshqa tillarda qo'llanilib kelayotganiga amin bo'lishimiz mumkin. Demak, rekreatsiya faoliyati inson dam olishi va shu orqali o'z sog'ligi, jismoniy va ruhiy kuchlarini qayta tiklashi bilan bog'liqdir.

N.F.Reymers "Rekreatsiya-aholi o'z salomatligi va ish qobiliyatini tiklash maqsadida tabiiy hududlarda dam olishi yoki milliy bog', arxitektura yodgorlikari va boshqa ko'ngil ochar maskanlarga sayohatlarga chiqishi" deb ta'kidlaydi. [8].

Amerikalik olim R.A. Stebbins esa rekreatsiyani quyidagicha ta'riflaydi: "Iqtisodiy jihatdan rivojlangan jamiyatda rekreatsiya insonlarning jismoniy va aqliy mehnat jarayonidagi ezilishidan sog'ayishni anglatadi" [9].

V.A.Kvartalnov fikriga ko'ra "Rekreatsiya – insonning jismoniy, aqliy kuchlarini qayta tiklash va ochiq havoda sayr qilish jarayonlari tushuniladi" deb ta'riflaydi. [10].

T.B. Nikolenko fikriga ko'ra, "Rekreatsiya – bu dam olishning xohlagan turi, inson kuchlarini qayta tiklashga yo'naltirilgan faoliyat turidir" [11].

L.A. Akimov fikricha, turizm-rekreatsiyaning turli-tuman ko'rinishi, dam olishning aktiv turlaridan biri, tanishuv faoliyati orqali insonning mehnat qilish qobiliyatini qayta tiklash jarayonlariga aytiladi, deb ta'rif bergan. [15].

Iqtisodchi olim Z.T. Abdulhakimov o'z ilmiy tadqiqotlari davomida rekreatsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan "Rekreatsiya-bu tabiiy muhitda inson o'zining ish qobiliyatini qayta tiklay olishi va dam olishi mumkin bo'lgan joylar (tabiatning manzarali joylari, baland tog' va tog' oldi hududlari, suv xavzalari bo'ylari, soylar, sharsharalar, tabiiy yodgorliklar va qo'riqxonalar, davolanish va dam olishga mo'ljallangan sanatoriy, turistik bazalar, tarixiy yodgorliklar, muzeylar, turli ko'rgazmalar, teatrlar, turli madaniy kechalar va tadbirlar)ni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir" deb fikr bildirgan. [16].



Yana bir iqtisodchi olim Z.I. Usmonova o'zining doktorlik dissertatsiyasida rekreatsiya tushunchasining turli talqinlari tahlil qilish natijasida, uni «Rekreatsiya-uydan tashqarida tabiatda, turistik sayohatlarda, sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish muassasalarida dam olish yo'li bilan sog'ligini va ishchi kuchini tiklash deb tushunish lozim bo'ldi. Rekreatsion turizm-turizmning klassik ko'rinishi bo'lib, o'z ichiga sog'lomlashtirish, tanishuv va sport turizmini qamrab oladi. Rekreatsiya dam olishni maqsadli tashkil etish, tegishli bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish va qo'llashi, tomoshabin sifatida tadbirlarda ishtirok etish yo'li bilan aholining jismoniy, intellektual va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilish jarayonini qamrab oluvchi maxsus faoliyat turidir» deb ta'riflagan. [11].

Rekreatsiya faoliyati geografiya fani tomonidan o'rganilishi turli mamlakatlarda turli davrlarda boshlangan. Jumladan, Angliya va Amerika geografiyasida turizm va rekreatsiya 1930-yillardan boshlab muntazam ravishda tadqiq etilmoqda. Turizm va rekreatsiya sohasi bo'yicha dastlabki tadqiqotlar Amerika iqtisodiy geografiyasida 1930-yillarda urushdan keyingi vaqtda turistik rayonlarni iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishi tufayli rivojlandi. Buyuk Britaniyada rekreatsiya bo'yicha yirik tadqiqotlar 1939-1949-yillarda Gilbert tomonidan Britaniyaning sohilbo'yi hududlarida kurortlarni tashkil qilish asosida rivojlandi. [12].

G'arbda 1960-1970-yillarga kelib turizm va rekreatsiya geografiyasi sohasi bo'yicha maxsus ilmiy nashrlarning ko'payishi tufayli ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar jadallik bilan rivojlandi. G'arbda, jumladan, AQSH va Angliyada turizm va rekreatsiya sohasiga Pirs (1979), Smit, Mitchel (1990), Myorfi (1991), Hall, Lyu (1998), Patmore (1983), Koppok, Duffield (1975) kabi olimlar hissa qo'shganlar. Kanadada esa turizm sohasidagi muhim tadqiqotlar Roy Volf nomi bilan bog'liq. Uning dastlabki tadqiqotlari 1951-1952-yillarda Ontario qishloqlarida amalga oshirilgan. [12].

Sobiq Ittifoqda esa rekreatsiya geografiyasi XX asrning ikkinchi yarmidan keng taraqqiy eta boshladi. 1963-1975-yillarda rus tadqiqotchilari V.S. Preobrajenskiy, Y.A. Vedenin, I.V. Zorin, V.N. Lexonov, L.I. Muxina, L.C. Filippovich va boshqalar tomonidan «Rekreatsiya geografiyasining nazariy asoslari» nomli monografiya tayyorlandi. Rossiyada rekreatsion geografiyani ilmiy jihatdan o'rganishda, A.Y. Vedenin, N.A. Danilova, I.V. Zorin (1974), N.N. Miroshnichenko (1969), L.I. Muxin, I.I. Projkin (1975) kabi tadqiqotchilar rekreatsion faoliyatni baholashda geografik yondashuvga alohida etibor beradilar. [3].

O'tgan asr 70-yillarining ikkinchi yarmida L.A. Bagrova, N.B. Bagrov, V.S. Preobrajenskiylar, «rekreatsion resurs»larni analiz qilish usullarini o'rganadi.



“Turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari” ilmiy to’plamida V.S. Preobrajenskiy (1975) rekreatsion faoliyatni asosiy nazariyalariga e’tibor qaratadi. Rossiyada rekreatsion geografiya XX asrning 80-yillarida mustaqil fan sifatida yuzaga kela boshladi. Bu davrda bir qancha asosiy ilmiy ishlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan: P.G. Sarfis “SSSR rekreatsiya geografiyasi: kurortologik omillar” (1979), N.S. Mironenko va I.T. Tverdoxlebov rekreatsion geografiyani fundamental o’rganishda rekreatsion resurslarning – tarixiy yoki badiiy qiymati, o’ziga xosligi, estetik jozibasi va tibbiy sog’lomlashtirish ahamiyati kabi xususiyatlarini muhim deb tushuntiradi. [7].

Rus olimlari tomonidan rekreatsion geografiyaga oid ko’plab ilmiy ishlar va maqolalar bu fanning rivojlanishiga katta turtki berdi. Jumladan: «Hududiy rekreatsion tizim dinamikasi» (Y.A. Vedenin. 1982-yil), «Rekreatsion tizimlar» (N.S.Mironenko va N. Bochvarova.), «Iqtisodiy geografiyaning rivojlanishida rekreatsion omillarning rivojlanish tendensiyalari» (E.M. Eldarov. 1990-yil), «Rekreatsion resursshunoslik» (E.B. Kolotova), «Hududlarda rekreatsiyani rivojlanishida iqtisodiy muammolar» (M.M. Amirxonov, A.A.Tatarinov, A.D. Trusov. 1997-yil), «Rekrealogiya va rekreatsion geografiya nazariyasi» (V.S.Preobrajenskiy, Y.A.Vedenin, I.V.Zorin, V.A. Kvartalnov, V.M.Krivoshev, L.S.Fillipovich. 1992-yil), kabi monografiya va ilmiy ishlar ushbu fan va tarmoqning rivojlanishiga katta hissa qo’shgan. [13].

Rekreatsion faoliyatda mavsumiylikni keltirib chiqaruvchi ikkita omilni ko’rishimiz mumkin. Bular: 1). tabiiy omil (fasllarning almashinishi, yomg’irli kunlar, tumanli kunlar va hk) 2). tashkillashtirilgan omil (davlat va diniy bayramlar, festivallar, xalqaro musobaqa va forumlar)

2. Jamiyatda ayollarning ko’pligi: Amerikalik olim M. Argeyl genderni rekreatsiyaga to’sqinlik qiluvchi sabab qilib ko’rsatadi. Uning ta’rifiga ko’ra, ayollarda ayniqsa, farzandli ayollarda dam olish vaqti erkaklarga qaraganda ancha kamdir. Yuqoridagi fikrlardan, erkaklar ayollarga qaraganda rekreatsiya faoliyatida aktivroq hisoblanadi degan fikrga kelishimiz mumkin.

3. Yosh: aholi yosh tarkibi ham dam olishda ishtirok etishga kuchli ta’sir qiladi. I. Hendri va boshqa olimlar o’smirlik davrini bo’sh vaqtga bo’lgan ehtiyojning eng yuqori davri deb ta’riflashadi. Huddi shunday jismoniy kuch va ijtimoiy energiya an’anaviy ravishda balog’at yoshining keyingi bosqichida pasayish bilan izohlanadi. Bu esa keyingi hayot davomida faol dam olishning pasayishiga olib keadi. Mamlakatimizdagi ko’plab dam olish maskanlarida ham rekreatsiya faoliyatida yoshlarning soni ko’p ekanligini ko’rishimiz mumkin.



4. Mablag'ning kamligi: Amerikalik olim M. Argeyl moliyaviy resurslarning kamligi ham rekreatsiya faoliyati bilan shug'ullanishga to'sqinlik qilishini o'z asarlarida aytib o'tgan, chunki, odamlar daromadlarining yuqoriligi ularning bo'sh vaqtini ortishiga va bu bo'sh vaqtdan "Rekreatsiya vaqti" maqsadida foydalanishga sabab bo'ladi. Amerikalik olim D. Merker ham boy mamlakatlarda aholining bo'sh vaqti ko'p bo'lishini aytib o'tgan.

5. Odamlarning rekreatsion resurslarga yaqin yoki uzoqligi: Rekreatsion resurslarga hududiy yaqinlik va ulardan foydalanish imkoniyati asosiy hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu fikrni T. Burton 1971-yilda aytib o'tgan. U Buyuk Britaniyada odamlar rekreatsion resurslardan yarim milyardan 3,4 milyagacha uzoqlikda yashasalar dam olish manbalaridan uch barobar ko'proq foydalanishini aniqlagan. [14]. Bu xususiyat J.A. Patmore va S.J. Peyj va boshqalar tomonidan ham shahar parklari bo'yicha tadqiqotlarida aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
3. Jumaev X.X. Qashqadaryo viloyati turizm-rekreasiya salohiyatini baholash va turizm infratuzilmasining hududiy tizimlarini takomillashtirish. Geogr. fan. b-cha fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. Samarqand, 2022. 49 b.
4. Maxmudov M.M. Andijon viloyatida turizmni rivojlantirishning iqtisodiy-geografik xususiyatlari. Geogr. fan. b-cha fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. Toshkent, 2021. 45 b.
5. «O'zbek tilining izohli lug'ati». T.: "O'zbekiston nashriyoti".- 2021.
6. Кусков А.С., Голубаев В.Л., Одинцова Т.Н. «Рекреационная география». – М.: -344-с.
7. Мироненкою Н.С, Твердохлебов. И.Т «Рекреационная география». Учебное пособие. Москва. 1981 г.
8. Реймерс Н.Ф. Природопользование: словарь-справочник. - М.: Мысль, 1990. - 637 с.
9. Stebbins R.A. (1982) "Serious leisure: a conceptual statement", Pacific Sociological Review, p 251.



10. Егоров. Н.Н, Морова. И.А, Полянская. Н.Я. “Перспективы развития туристического рынка Республики Саха (Якутия)” монография. Санкт-Петербург. 2014 г. 21 стр.
11. Усмонова. З .И. “Ўзбекистонда туристик-рекреацион хизматларни ривожлантириш хусусиятлари ва тенденциялари. Фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёорланган диссертацияси. Самарқанд-2018 й. 14-20-б.
12. J.T. Koppock *Second Homes: Curse or Blessing?* Oxford: Pergamon Press.
13. Жумаев Х.Х. Туризм ва рекреация географиясининг назарий масалалари. Ўзбекистон география жамияти X-съезди материаллари. Тошкент, 2019 йил. 6-7 декабр. 51-53 б.
14. Burton. T. “*Experiments in Recreation Research*”. London: Allen and Unwin.
15. Александрова. А.Ю. «Международный туризм. Москва. 2005 г. 54 с.
16. З.Т Абдулхакимов «Минтақада рекреациядан фойдланишнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш (Наманган вилояти мисолида» мавзусидаги Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати мундарижаси. 12-б.

